

**O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA SARGUZASHT-FANTASTIK TASVIR: ANVAR
OBIDJON IJODI MISOLIDA**

Sadiyeva Nodirabonu Xikmatillo qizi

mustaqil tadqiqotchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22869818>

Annotatsiya. Mazkur tezisda o'zbek bolalar adabiyotida sarguzasht-fantastik yo'nalishning shakllanishi, uning badiiy-estetik xususiyatlari hamda Anvar Obidjon ijodida mazkur unsurlarning bola konsepti bilan aloqadorligi tahlil qilinadi. Sarguzasht va fantastika yosh kitobxonning tasavvuri, ijodiy tafakkuri va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim badiiy vosita sifatida yoritiladi. Tadqiqotda fantastik tasvirning faqat xayoliy voqelik yaratish bilan cheklanmasligi, balki real hayot hodisalarini yangicha idrok etish, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni anglash imkonini berishi asoslanadi. Anvar Obidjonning "Alamazon va uning piyodalari" asari misolida real va xayoliy voqelikning o'zaro uyg'unligi, sarguzasht elementlarining syujet va kompozitsiyadagi vazifasi hamda bola obrazining badiiy-g'oyaviy funksiyasi tahlil qilinadi. Asarda "jasur farzandlar" timsoli orqali vatanparvarlik, jasurlik, fidoyilik va milliy g'urur kabi qadriyatlarning ifodalanishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, bola konseptining sarguzasht-fantastik tasvir vositasida boyishi va uning o'quvchining emotsional-estetik idrokiga ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek bolalar adabiyoti, sarguzasht, fantastika, bola konsepti, bola obrazi, Anvar Obidjon, "Alamazon va uning piyodalari", badiiy tafakkur, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, fantaziya.

Аннотация. В тезисе рассматриваются формирование приключенческо-фантастического направления в узбекской детской литературе, его художественно-эстетические особенности, а также связь данных элементов с концептом ребёнка в творчестве Анвара Обиджона. Приключения и фантастика рассматриваются как важные художественные средства, способствующие развитию воображения, творческого мышления и самостоятельного восприятия мира юного читателя.

Обосновывается, что фантастическое изображение не ограничивается созданием вымышленной действительности, а способствует новому осмыслению реальных жизненных явлений, нравственных и социальных ценностей. На материале произведения Анвара Обиджона «Аламазон и его пехотинцы» анализируется взаимодействие реального и фантастического миров, роль приключенческих элементов в развитии сюжета и композиции, а также идейно-художественная функция образа ребёнка. Особое внимание уделяется раскрытию таких ценностей, как патриотизм, мужество, самоотверженность и национальная гордость через образ «смелых детей». Также исследуется художественное значение концепта ребёнка в приключенческо-фантастическом контексте.

Ключевые слова: узбекская детская литература, приключения, фантастика, концепт ребёнка, образ ребёнка, Анвар Обиджон, «Аламазон и его пехотинцы», художественное мышление, патриотизм, национальные ценности, фантазия.

Abstract. *This thesis examines the formation of the adventure-fantasy genre in Uzbek children's literature, its artistic and aesthetic characteristics, and the relationship between these elements and the concept of the child in the works of Anvar Obidjon. Adventure and fantasy are considered important literary devices that contribute to the development of young readers' imagination, creative thinking, and independent perception of the world. The study demonstrates that fantasy is not limited to creating an imaginary reality, but also provides an opportunity to reinterpret real-life phenomena and understand moral and social values from a new perspective.*

Based on Anvar Obidjon's work "Alamazon and His Infantrymen", the study analyzes the interaction between realistic and fantastic elements, the role of adventure in plot and composition, and the artistic and ideological function of the child character. Particular attention is paid to the concepts of patriotism, courage, self-sacrifice, and national pride represented through the image of "brave children". The study also explores the artistic significance of the concept of the child within the adventure-fantasy context.

Keywords: *Uzbek children's literature, adventure, fantasy, concept of the child, child character, Anvar Obidjon, "Alamazon and His Infantrymen", artistic thinking, patriotism, national values, imagination.*

Kirish

O'zbek adabiyoti ko'p asrlik badiiy an'analari, mazmunan teran va g'oyaviy jihatdan rang-barang asarlari bilan milliy ma'naviyatning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, bolalar adabiyoti yosh avlodning estetik didi, ma'naviy dunyoqarashi va mustaqil tafakkurini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bolalar uchun yaratilgan badiiy asarlar nafaqat ko'ngilochar vazifani bajaradi, balki o'quvchining hayot haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, unda ezgulik, vatanparvarlik, do'stlik, jasorat va insoniylik kabi qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonda sarguzasht va fantastika elementlariga asoslangan asarlarning o'рни alohidadir. Sarguzashtli syujet o'quvchining qiziqishini kuchaytirsa, fantastik tasvir uning xayolot va tasavvur doirasini kengaytiradi. Shu sababli sarguzasht-fantastik asarlar bolalar kitobxonligini rivojlantirish, ularning ijodiy va tanqidiy tafakkurini shakllantirish uchun muhim badiiy-estetik imkoniyatlarga ega.

Fantastika atamasi yunoncha "phantazion" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, xayol, tasavvur va uydirma ma'nolarini anglatadi. Biroq badiiy adabiyotdagi fantastik tasvirni oddiy xayoliylik bilan tenglashtirish mumkin emas. Fantastika ko'pincha mavjud voqelikni yangicha tasavvur qilish, hayotiy muammolarni g'ayrioddiy badiiy vaziyatlar orqali yoritish va inson tafakkurining imkoniyatlarini kengaytirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bolalar adabiyotida fantastik asarlarning ahamiyati shundaki, ular o'quvchini ilm-fan, tabiat, texnika va jamiyat haqidagi bilimlarga qiziqtirishi, yangilik yaratishga intilish va kashfiyotchilik ruhini shakllantirishi mumkin. Shu bilan birga, bunday asarlar bolani mustaqil fikrlashga, voqealarga turli nuqtayi nazardan qarashga undaydi.

Sarguzasht va fantastika o'zaro yaqin badiiy hodisalar bo'lib, ko'plab asarlarda ular bir-birini to'ldiradi.

Sarguzasht asarlarga kutilmagan voqealar, keskin vaziyatlar, xavf-xatar, qahramonning sinovlardan o'tishi va voqealarning tezkor rivoji xos. Fantastik unsur esa ushbu voqealarga g'ayrioddiylik, xayoliylik va tasavvur kengligini olib kiradi.

Jahon adabiyotida sarguzasht-fantastik yo'nalishning ko'plab yorqin namunalari yaratilgan. Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari", Daniel Defoning "Robinson Kruzo", Jyul Vernning "O'n besh yoshli kapitan" kabi asarlarida sarguzasht, kashfiyot, sinov va inson imkoniyatlari masalalari turli badiiy shakllarda yoritilgan.

O'zbek adabiyotida ham XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fantastik va sarguzasht yo'nalishidagi asarlar ko'payib bordi. Xususan, Xudoyberdi To'xtaboyev, Hojiakbar Shayxov, Sa'dulla Quronov singari ijodkorlarning asarlarida mazkur yo'nalishning turli ko'rinishlari shakllandi. Xudoyberdi To'xtaboyev ijodida sarguzasht va yumor uyg'unligi ustunlik qilsa, Hojiakbar Shayxov asarlarida ilmiy-fantastik tafakkur va texnik taraqqiyot bilan bog'liq masalalar kengroq yoritiladi.

Anvar Obidjon ijodida esa fantastika ko'proq badiiy fantaziya, jonlantirish, mubolag'a, g'ayrioddiy vaziyat va sarguzashtli voqealar orqali yuzaga chiqadi. Shu sababli uning ijodini sof ilmiy-fantastik adabiyot doirasida emas, balki bolalar dunyoqarashiga moslashtirilgan sarguzasht-fantastik tasvirning o'ziga xos ko'rinishi sifatida o'rganish mumkin.

Anvar Obidjon o'zbek bolalar adabiyotining o'ziga xos badiiy tafakkurga ega vakillaridan biridir. Uning asarlarida hayotiy voqelik va xayolot, jiddiy mazmun va yumor, sarguzasht va fantastik tasvir o'zaro uyg'unlashadi. Adibning bunday uslubi bolalar dunyosining tabiiy xususiyatlariga mos keladi. Chunki bola borliqni ko'pincha tasavvur, o'yin va fantaziya orqali anglaydi.

Sarguzasht-fantastik tasvir Anvar Obidjon asarlarida voqealarni qiziqarli qilish bilangina cheklanmaydi. U muallifning ma'naviy-axloqiy g'oyalarini ochish uchun ham xizmat qiladi.

Qahramonning g'ayrioddiy vaziyatga tushishi, turli sinovlardan o'tishi yoki kutilmagan voqealarga duch kelishi uning xarakterini ochish imkonini beradi.

Bu jihat, ayniqsa, "Alamazon va uning piyodalari" asarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Asarda bolalar hayoti, ularning harakatlari va voqealarga munosabati sarguzasht ruhida tasvirlangan. Real hayotga xos vaziyatlar xayoliy va g'ayrioddiy tasvirlar bilan uyg'unlashib, o'quvchi uchun o'ziga xos badiiy olamni yuzaga keltiradi.

Bola konsepti zamonaviy adabiyotshunoslikda bolaning ruhiyati, dunyoqarashi, his-tuyg'ulari, orzu-intilishlari, axloqiy qarashlari va ijtimoiy munosabatlarini o'zida mujassam etuvchi badiiy kategoriya sifatida qaraladi. Sarguzasht-fantastik asarlarda mazkur konsept yanada faol namoyon bo'ladi. Chunki bunday asarlarda bola qahramonning tasavvuri, jasorati, qiziquvchanligi va yangilikka intilishi syujetning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin.

"Alamazon va uning piyodalari" asarida bola obrazi sarguzashtli voqealar markazida turadi. Qahramonlarning turli vaziyatlardagi harakatlari ularning xarakterini, dunyoqarashini va ma'naviy qiyofasini ochib beradi. Bunda sarguzasht shunchaki voqealar ketma-ketligi emas, balki qahramonning shakllanish jarayonini ko'rsatuvchi badiiy mexanizm vazifasini bajaradi.

Asarning kirish qismida keltirilgan “Ona yurtimning jasur farzandlariga bag‘ishlayman” degan murojaat ham asarning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilovchi muhim komponentlardan biridir.

Undagi “Ona yurtim” birikmasi Vatan tushunchasini shaxsiy va milliy qadriyatlar bilan bog‘laydi. “Jasur farzandlar” ifodasi esa qahramonlarni nafaqat bolalar, balki xalqning kelajagini ifodalovchi yosh avlod timsoli sifatida anglash imkonini beradi.

Mazkur bag‘ishlov orqali asar boshidanoq o‘quvchining e‘tibori jasorat, fidoyilik va vatanparvarlik kabi tushunchalarga yo‘naltiriladi. Demak, bola konsepti bu yerda faqat bolaning yosh xususiyatlari bilan belgilanmaydi. U milliy qadriyatlar, Vatanga muhabbat va tarixiy xotira bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Badiiy asarning g‘oyaviy mazmuni syujet va kompozitsiya bilan chambarchas bog‘liq.

Sarguzasht-fantastik asarlarda syujetning dinamikligi, kutilmagan voqealar va qahramonning turli sinovlarga duch kelishi muhim kompozitsion vazifa bajaradi.

Anvar Obidjon asarlarida sarguzasht elementlari bolaning xarakterini harakatda ochishga imkon beradi. Qahramonning qarori, qo‘rquvni yengishi, muayyan vaziyatda mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishi yoki boshqalarga yordam berishi orqali uning ichki dunyosi namoyon bo‘ladi.

Shu jihatdan sarguzasht bola konseptining psixologik qatlamini ochuvchi vosita hisoblanadi. Bola voqealar davomida shunchaki ishtirok etmaydi, balki tajriba orttiradi, muayyan tanlovlar qiladi va shu orqali o‘z shaxsiy qiyofasini namoyon etadi.

Bunday tasvir bolalar adabiyotining tarbiyaviy imkoniyatlarini ham kuchaytiradi. O‘quvchi qahramon bilan birga voqealarni boshdan kechirgandek bo‘ladi va uning qarorlari, xatti-harakatlari orqali muayyan axloqiy xulosalarga keladi.

Fantastika bolaning estetik tafakkurini rivojlantirish uchun ham muhim vositadir.

G‘ayrioddiy voqealar, hayotiy hodisalarning o‘zgacha tasviri va xayoliy obrazlar o‘quvchini mavjud voqelik chegaralaridan tashqarida fikrlashga undaydi.

Anvar Obidjon ijodida fantastik tasvirning asosiy xususiyatlaridan biri uning hayotiylik bilan uyg‘unligidir. Fantastik unsur real hayotdan butunlay uzilib ketmaydi, aksincha, mavjud voqelikni anglashning o‘ziga xos shakliga aylanadi.

Bunday yondashuv bolaning ijodiy tasavvurini faollashtiradi. O‘quvchi asardagi voqealarni qabul qilish jarayonida o‘z tasavvuridan foydalanadi, qahramonlarning harakatlarini xayolan davom ettiradi va voqealarning turli yechimlarini tasavvur qiladi. Shu tariqa fantastik adabiyot o‘quvchining faqat badiiy didini emas, balki ijodiy tafakkurini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bola obrazi badiiy matnda dramatik ta’sirni kuchaytiruvchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, murakkab, xavfli yoki ziddiyatli vaziyatlar fonida bolaning beg‘uborligi, jasorati va umidga intilishi asarning emotsional ta’sirini oshiradi.

Bola obrazining zulmat va xavf bilan qarama-qarshi qo‘yilishi yorug‘lik va umid timsolini yuzaga keltiradi. Shu tariqa qahramonning oddiy harakati ham katta g‘oyaviy mazmun kasb etishi mumkin.

“Alamazon va uning piyodalari” asarida sarguzashtli vaziyatlar qahramonlarning xarakterini sinovdan o‘tkazadi. Bu jarayonda bola obrazi voqealar zanjirini rivojlantirish bilan birga, o‘quvchining hissiy munosabatini ham shakllantiradi.

Qahramonning boshidan kechirganlari o'quvchini voqealarga befarq bo'lmaslikka, uning taqdiri va qarorlari haqida o'ylashga undaydi.

Sarguzasht-fantastik asarlarning asosiy xususiyatlaridan biri tarbiyaviy g'oyani bevosita nasihat shaklida emas, balki qiziqarli badiiy voqealar orqali yetkazish imkoniyatidir. Bu usul ayniqsa bolalar adabiyoti uchun muhimdir.

Anvar Obidjon asarlarida vatanparvarlik, jasorat, do'stlik, sadoqat va insoniylik kabi tushunchalar qahramonlarning xatti-harakati orqali ifodalanadi. O'quvchi bu qadriyatlarni tayyor ta'rif sifatida emas, balki badiiy voqelikni kuzatish va qahramonlar bilan birga kechirish orqali anglaydi.

Shu bilan birga, fantastik tasvir bolaning ilmiy va ijodiy qiziqishlarini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Xayoliy vaziyatlar orqali o'quvchi "agar shunday bo'lsa-chi?" degan savol asosida fikrlaydi. Bu esa muammoli tafakkur, tasavvur va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa. O'zbek bolalar adabiyotida sarguzasht-fantastik yo'nalish yosh kitobxonning badiiy-estetik dunyoqarashini kengaytirish, tasavvurini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish imkonini beruvchi muhim adabiy hodisadir. Fantastik tasvir real hayotdan uzilgan xayoliy olam emas, balki mavjud voqelikni yangicha idrok etish va uni badiiy talqin qilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Anvar Obidjon ijodida sarguzasht va fantastika o'ziga xos poetik uyg'unlik kasb etadi.

Adib fantaziya, g'ayrioddiy vaziyat, jonlantirish, mubolag'a va sarguzashtli syujet orqali bolalar dunyosini badiiy jihatdan jonlantiradi. Bu vositalar asarlarning qiziqarliligini ta'minlash bilan birga, muayyan axloqiy va ijtimoiy g'oyalarni ochishga xizmat qiladi.

"Alamazon va uning piyodalari" asarida bola konsepti sarguzashtli voqealar, qahramonlarning jasorati va ularning Vatanga munosabati orqali shakllanadi. "Jasur farzandlar" timsoli bola obrazini milliy qadriyatlar bilan bog'laydi. Natijada bola oddiy sarguzasht qahramoni emas, balki jasorat, fidoyilik, vatanparvarlik va kelajakka ishonch kabi tushunchalarni mujassamlashtiruvchi badiiy timsol darajasiga ko'tariladi. Shuningdek, sarguzasht-fantastik syujet bola obrazining psixologik jihatdan ochilishiga ham imkon beradi. Turli sinovlar jarayonida qahramonning xarakteri, tanlovi, dunyoqarashi va ma'naviy qiyofasi namoyon bo'ladi. Shu sababli Anvar Obidjon ijodidagi sarguzasht-fantastik tasvirni bola konsepti bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotining poetik xususiyatlarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Umuman, Anvar Obidjon ijodida sarguzasht va fantastika bolaning xayolot dunyosini kengaytiruvchi, uning estetik idrokini faollashtiruvchi hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni badiiy singdiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur xususiyatlar adib ijodining o'zbek bolalar adabiyotidagi o'ziga xosligini belgilovchi muhim jihatlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anvar Obidjon. Alamazon va uning piyodalari. – Toshkent: Yosh gvardiya.
2. Anvar Obidjon. Bahromning hikoyalari. – Toshkent: Yosh gvardiya.
3. Anvar Obidjon. Oltin yurakli Avtobola. – Toshkent: Yosh gvardiya.

4. Anvar Obidjon. Dahshatli Meshpolvon. – Toshkent: Cho‘lpon.
5. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. – Toshkent: Yosh gvardiya.
6. Shayxov H. Olis sayyora. – Toshkent: Yosh gvardiya.
7. Quronov S. Fantastik asarlar. – Toshkent.
8. Rasulov A. O‘zlik sari yo‘l. – Toshkent: Adib.
9. Barakayev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. – Toshkent.
10. Jamilova B. Bolalar adabiyoti. – Toshkent.
11. Umurzakov R. Bola obrazining nazariy muammolari. – Toshkent.
12. Odilova Z. O‘zbek bolalar she‘riyatida yumor va satira (60–70-yillar): filol. fan. nomz. dissertatsiyasi. – Toshkent.